

Esonova Muxtasarxon Doniyor qizi

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy psixologizmning adabiyotdagi o'rnini, uning bevosita va bilvosita usullari bayon qilinadi. Shuningdek, badiiy psixologizmdan unumli foydalangan bir nechta mashhur adiblarining jumladan, Alisher Navoiy, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy asarlaridan parchalar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *psixologizm, badiiy obraz, qahramon, dialog, monolog, personaj, ruhiy kechinmalar, portret, muallif nutqi.*

Yozuvchi badiiy asar yaratarkan, undagi qahramonlarining ruhiy holatini, kechinmalarini va ichki dunyosini turli badiiy vositalar bilan tasvirlaydi va o'quvchi ko'z oldida ularni yetuk shaxs sifatida to'la shakllantiradi. Adabiyotda bu hodisa badiiy psixologizm deb nomlanadi. Taniqli rus adabiyotshunos olimi A.B.Esin badiiy psixologizmga bunday ta'rif beradi: "Psixologizm aniq san'at shaklidir, uning orqasida badiiy ma'no, g'oyaviy va hissiy mazmun turadi va ifodalanadi."¹¹⁶ O'zbek adabiyotshunos olimi D.Quronov esa shunday ta'kidlaydi: "Badiiy psixologizm- badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin."¹¹⁷ Bulardan shu ma'lumki, psixologizm har uchchala janr (she'riyat, nasr, dramaturgiya)da muhim ahamiyat kasb etadi va asarning ta'sirchanligi va mazmundorligini oshiradi: usiz asar to'la badiiy asar bo'la olmaydi desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

1. Bevosita yoki ochiq psixologizm yozuvchining qahramon nutqi (dialog, monolog), xatlar, kundaliklar, orzular va tushlar yordamida ya'ni "ichkaridan turib" personajning o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiy kechinmalarini tasvirlashi demakdir.

Badiiy asarda obrazlar o'zaro bir-birlari bilan muloqotga kirishar, o'zi bilan o'zi gaplashar yoki boshqalarga qarata so'zlar ekan, o'quvchi bevosita ularning ichki dunyoqarashi, xarakteri, ruhiy kechinmalari va yashash tarzidan boxabar bo'lib boradi. Misol sifatida Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi "Farhod va Shirin" dostonida Xisrav va Farhod dialogini olaylik.

Dedi: "Bu ishq tarki yaxshiroqdir!"

Dedi: "Bu sheva oshiqdan yiroqdir!"

¹¹⁶ Esin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.-M.,2002

¹¹⁷ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004

Dedi: "Ol ganj-u, qo`y mehrin nihoni!"

Dedi: "Tufroqqa bermon kimyoni!"¹¹⁸

O`quvchi bu satrlarni o`qir ekan, Farhodning bu ishqni hech qachon tark etmasligidan, uni xatto oltin-u kumushlarga almashmasligidan uning naqadar yuksak qalb egasi ekanligini, Xisravni esa haqiqiy ishqdan mosuvo, tuban va manaviyatsiz inson bo`lganini anglaydi.

Taniqli o`zbek shoiri Usmon Nosirning "Monolog" she`ri ham bevosita psixologizmga yorqin misol bo`la oladi:

"Ehtimolki, tamom qilmasdan

Umrin tugar ammo bo`lmaydi

(Ko`nglim o`rniga hech tushmaydi)

Senga qarshi bosh ko`tarmasdan

Asrlarni yig`latgan sevgi!!!"¹¹⁹

She`rning oxirgi bandida shoir sevgiga qarshi isyon qilgan xolda, o`z qalbidagi tug`yon urayotgan tuyg`ularini va atrofida sodir bo`layotgan hodisalarga nisbatan qarashlarini o`quvchiga to`g`ridan-to`g`ri aytib bermoqda.

Tushlar, orzular va tasavvurlar ham bevosita psixologizmning bir ko`rinishi hisoblanadi. Bunda qahramon tush ko`rayotgan vaqtda yoki xayol surayotganda, uning ichki olami oynadek yaqqol aks etadi. Ayniqsa, personajning orzu va xayollari uning eng yashirin xislatlarini, qalbining tub-tubidagi kechinmalarini ochib beradi. Tushlar esa qahramonning bo`lib o`tgan voqeadan qattiq ta`sirlanishi yoki yaqin kelajakdagi hodisaga ishora sifatida yuzaga keladi va ular ham personajning ichki holatiga va kayfiyatiga ta`sir qiladi. Aksariyat xalq ertaklari, rivoyatlar va dostonlardagi voqealar rivoji obrazlar tushi bilan uzviy bo`g`liq bo`ladi. Masalan, "Alpomish" dostonida bir necha o`rinlarda qahramonlarning tush ko`rgan lavhalariga duch kelinadi.

"Tush ko`ribman fayzi sahar bo`lganda

Qibla betdan bir oy tug`ib keladi,

Oyning girdin to`rtta yulduz oladi,

Tushimning ta`biri qanday bo`ladi?"¹²⁰

Bu yerda dostonning bosh qahramonlaridan biri bo`lmish Barchin o`zining tush ko`rganini kanizi Suqsuroyga so`zlab beryapti. Suqsuroyning ta`biricha, bir oy va to`rtta yulduz yaqinda quvonchli voqea(Alpomishning kelishi va barcha alplarni yengishi) yuz berishiga ishora qiladi va Barchinning ko`ngli bu bilan anchagina taskin topadi.

2. Bilvosita yoki yashirin psixologizm esa muallifning o`zining nutqi, portret, sharh, landshaft, sukunat va boshqa badiiy detallardan foydalanib asar qahramonining ruhiy dunyosini va xarakter qirralarini tasvirlashidir. Qahramonning bevosita o`zining

¹¹⁸ A.Navoiy. Xamsa. T.: Yangi asr avlodi, 2016. -169-b

¹¹⁹ Usmon Nosir. T.: O`zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. -31-b

¹²⁰ Alpomish. O`zbek xalq qahramonlik dostoni. Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa, 1998

nutqi(bevosita psixologizm)dan farqli o'laroq bunda yozuvchi badiiy obrazlarni uchinchi shaxs(o'zga) tomonidan kengroq va to'liqroq tahlil qiladi va tasvirlaydi.

Shubhasiz, o'zbek adabiyotida roman janri asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bilvosita psixologizmning yorqin namunalaridan biridir. Yozuvchi A.Qodiriy asardagi har bir qahramonning ichki va tashqi dunyosini mayda detallarigacha batafsil tasvirlaydi.

*"Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ylak,ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'rilik ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi- Oftoboyim..."*¹²¹

Bu satrlarda ham yozuvchi go'yoki mohir rassomdek borliqdagi barcha ranglardan foydalanib Oftoboyim obrazining tashqi ko'rinishini uning kiygan liboslari(atlas ko'ylak, odmi guppi, oq dakana)dan, fazilatlarini esa ijobiy sifatlar(muloyimlik, eriga itoat, to'g'rilik) orqali o'z qahramonini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantiryapti.

Xulosa qilib aytganda, badiiy psixologizmning badiiy asar yaratishdagi rolini inkor etib bo'lmaydi va uning har ikkala usullari ham asarning to'liq tushinilishini va ta'sirchanligini oshiradi. To'g'ri va unumli qo'llanilgan psixologizm tufayli o'quvchi asar voqealari uning hayotida sodir bo'layotgandek his qiladi: qahramonlar bilan birga yashaydi, ular g'amga botganda yig'laydi, g'alabaga erishganda quvonadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Esin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.-M.,2002
- 2.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004
3. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: "Sharq", 2008
4. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr". 2013.
5. Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т., Фан, 1983.
- 6.A.Navoiy. Xamsa. T.: Yangi asr avlodi, 2016. -169-b
- 7.Usmon Nosir. T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. -31-b
- 8.Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa, 1998
- 9.A.Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent,2013

¹²¹ A.Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent,2013